

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Eminchayev

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlar 11

G.M.So'fiboyeva

Boshlang'ich sinflarda STEAM – ta'lif texnologiyasini qo'llashning ilmiy-nazriy asoslari 14

M.M.Baxromov

Elektron ta'lilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli 18

A.A.Meliqo'ziyev

11 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda tavsiya etilgan mashqlar majmuasining samaradorligi 21

R.B.Mirzaev

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda pedagogik maxoratni oshirish 26

A.A.Muhiddinov

Aylanma mashqlar yordamida oliy ta'lif muassasalari talabalarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va samaradorlig 34

SH.G'.Qodirov

O'rta yoshdag'i o'quvchilarda chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar samaradorligi tahlili 42

M.K.Axmadaлиева, K.N.Rахимова, M.O.Балтабаева

Использование современных технологий в системе образования Узбекистана 46

SH.D.Raxmatjonov

Faoliyat motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar 50

O.B.Tursunov

Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitishda kompetensiyalarni shakllantirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasi 55

S.R.Uraimov

Pedagogika oliy ta'lif muassasalari talabalarning jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar orqali rivojlantirish usullari va samaradorligi 58

S.R.Uraimov

Jismoniy tarbiya darslarida nazariy mashg'ulotlarning samaradorligi 62

S.R.Uraimov

Qishloq maktablarida yuqori harorat sharoitida jismoniy tarbiya darslarini o'tkazish metodikasining ilmiy asoslari va samaradorlig 67

R.A.Xamrakulova

Diplomatik diskursda paralingvistik elementlar tadqiqi 71

O.N.Madaminov

Jismoniy rivojlanganlik - jismoniy statusning mazmuni va uning o'lchamlari tarixi 74

S.D.Akzamov

Futbolchilarning stress boshqaruvi va psixologik chidamliligi 80

Г.Г.Козлова

Эффективность использования компетентностного подхода в формировании волевых качеств у учащихся старших классов 85

М. К.Рузиева

Интеграция уроков плавания с экологическим воспитанием 89

Н.Н.Бобоҷонов

Интеграция волейбольных упражнений для развития когнитивных навыков у школьников 94

Z.N.Usmonov, G.R.Qurbanov

Tana qismlarining (bo'laklarini) garmonik rivojlanganligini ijobiy va salbiy tomonlari 99

J.X.Abdullahov

O'quvchilar jismoniy tarbiyasining vazifalari, mashg'ulotlarining shakllari, vositalari, darsning mazmuni va tuzilishi 105

A.M.Maxmutaliyev

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari 111



УО'К: 378.147:33

IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA YANGICHA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ЭКОНОМИКИ

NEW PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING ECONOMICS

Eminchayev Baxodirjon Sadikovich

Farg'onan davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Iqtisodiy fanlar — jamiyatning iqtisodiy jarayonlarini tushunish va boshqarish imkonini beruvchi ilmiy soha bo'lib, u talabalarga iqtisodiy nazariyalar, metodlar va amalliyotlarni o'rgatadi. Bu fanni o'qitish esa nafaqat iqtisodiy bilimlarni shakilantirish, balki talabalarda zamonaliv iqtisodiy muammolarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'tgan asming o'talaridan boshlab, iqtisodiy fanlarni o'qitishda turli pedagogik yondashuvlar rivojlanib bormoqda. Bu magolada iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlar, ularning ahamiyati va zamonaliv ta'lif tizimidagi roli haqida so'z boradi.

Аннотация

Экономика — это научная область, которая обеспечивает понимание и управление экономическими процессами общества и обучает студентов экономическим теориям, методам и практике. Преподавание данного предмета направлено не только на формирование экономических знаний, но и на развитие способности студентов анализировать современные экономические проблемы, принимать решения и активно участвовать в социально-экономических процессах. С середины прошлого века в преподавании экономических наук развиваются различные педагогические подходы. В данной статье говорится о новых педагогических подходах в преподавании экономических наук, их значении и роли в современной системе образования.

Abstract

Economics is a scientific field that allows you to understand and manage the economic processes of society, it teaches students economic theories, methods and practices. Teaching this subject is aimed not only at the formation of economic knowledge, but also at developing in students the ability to analyze modern economic problems, make decisions and actively participate in socio-economic processes. Since the middle of the last century, various pedagogical approaches have been developing in teaching economics. This article discusses new pedagogical approaches to teaching economics, their importance and role in the modern education system.

Kalit so'zlar: iqtisodiy fanlar, interaktiv ta'lif, raqamli texnologiyalar, virtual resurs, iqtisodiy muammolar, iqtisodiy siyosat

Ключевые слова: экономические науки, интерактивное образование, цифровые технологии, виртуальный ресурс, экономические проблемы, экономическая политика.

Key words: economic sciences, interactive education, digital technologies, virtual resource, economic problems, economic policy

KIRISH

Talabaga yo'naltirilgan ta'lif — bu pedagogik yondashuv, bunda o'qituvchi o'quv jarayonining rahbari, lekin asosiy diqqat talabaga qaratiladi. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda bu yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari bor. Masalan, o'qituvchi darsda nazariy bilimlarni faqat taqdim etish bilan cheklanmay, talabalarni iqtisodiy muammolarni tahlil qilish va ularni yechish jarayonlariga jaib etadi. Bu yondashuv talabalar o'rtaida faol muloqot, guruh ishlari va case-study metodlarini qo'llashni taqozo etadi. Bunday yondashuvni amalga oshirishda o'qituvchi har bir talabaning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishga harakat qiladi. Masalan, iqtisodiyotning turli sohalariga oid mavzularni o'rganishda talabalar o'zlarining shaxsiy qiziqishlariga asoslanib, ularni mustaqil ravishda o'rganishlari uchun imkoniyat yaratish zarur. Bu jarayonda talabalar nafaqat ma'lum bir mavzu haqida bilim olishadi, balki mustaqil fikrash, tahlil qilish, va jamoaviy ishlarni olib borish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Harakatlar strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Har bir oilatadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz" hamda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" davlat dasturlari ijrosini ta'minlashdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyatimizning barcha sohalarida bo'layotgan innovatsion yangilanishlarning bevosita ishtiroychilariga aylanishga yanada kengroq jalb qilishdir.^[1]

Interaktiv ta'lim metodlari — talabalar o'ttasida muloqot va munozara jarayonini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usullari. Iqtisodiy fanlar o'qitilishida bu usul samarali qo'llaniladi, chunki iqtisodiy jarayonlar va masalalar ko'pincha murakkab va bir nechta omillarni o'z ichiga oladi. Interaktiv metodlar yordamida talaba nafaqat nazariy bilimni, balki real hayotdagi iqtisodiy muammolarni ham yechishga o'rganadi.¹

Shu nuqtai-nazardan yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib, O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtiroykini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga ilg'or innovatsion-zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban o'quv jarayonlarini sifatli va samarali tashkil etish va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka e'tiborni qaratishimiz zarur. chunonchi, o'qituvchilar dars davomida talaba ko'proq ma'lumotni mustaqil ravishda o'qib kelishi hamda ilmiy qiyosiy bilimlarini oshirishi joiz. Buning asosida, 60+40 asosida ya'ni talaba o'quvchi 60% ko'proq darsda qatnashish va 40% o'qituvchi dars ma'lumotlarini berish tavsiya etiladi. Shu sababli tadqiqotchi bu talaba va ma'lumotlar to'g'irlash vazifasini amalga oshiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Munozara (Debate), simulyatsiyalar (Simulations), case-study (haqiqiy hayotdagi vaziyatlarni o'rganish) kabi metodlar talabalarni iqtisodiy vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qilishga undaydi. Masalan, iqtisodiy siyosatni tahlil qilishda talabalar hukumatning biror iqtisodiy qarorini qo'llab-quvvatlashi yoki unga qarshi chiqqa olishadi, bu esa ularga iqtisodiy qarorlarni turli nuqtai nazardan baholash imkonini beradi.

Proyekt asosidagi o'qitish usuli talabalarga amaliy ishlarni bajarish orqali o'z bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda proyektlar talabalarni real iqtisodiy masalalar bilan tanishtiradi va ularga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu yondashuv orqali talaba iqtisodiy jarayonlar va hodisalarini tahlil qilib, o'z xulosalarini chiqaradi va mavjud muammolarga yechimlar taklif qiladi.

Proyekt asosidagi ta'lilda talabalar guruqlar tashkil etib, o'zaro hamkorlikda biror iqtisodiy muammoni hal qilishadi. Misol uchun, talabalar o'zlarini iqtisodiy maslahatchilar sifatida tasavvur qilib, ma'lum bir mintaqada iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun zarur choralarini ishlab chiqadilar. Bunday yondashuv talabalarga nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki jamoaviy ish va liderlik ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning yana bir muhim jihat — bu raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga keng joriy etishdir. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda raqamli vositalar, masalan, interaktiv ta'lim platformalari, onlayn kurslar va simulyatsiyalar talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilar turli virtual resurslardan (masalan, iqtisodiy tahlil qilish uchun dasturlar, simulatsiya o'yinlari) foydalangan holda, talabalarga iqtisodiy masalalarni amaliy tarzda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, onlayn darslar va videodarslar yordamida iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonini yanada kengaytirish mumkin. Bunda talabalar o'z vaqtlarida istalgan joyda darslarni tinglashlari, muammolarni mustaqil ravishda hal qilishlari va o'z bilimi va ko'nikmalarini baholash imkoniga ega bo'ladilar. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar global iqtisodiyotga oid o'rgatish materiallarini olishlari va zamonaviy iqtisodiy trendlarga oid axborotlarni tahlil qilishlari mumkin.

Konstruktivizm yondashuvi, bilim talaba tomonidan faol ravishda qurilishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvda talaba o'z tajribasini va bilimini o'zaro aloqada va muammolarni hal qilish jarayonida mustahkamlaydi. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda bu yondashuv talabalar o'zlarini iqtisodiy masalalarni tahlil qiluvchi va qarorlar qabul qiluvchi sifatida ko'rishlariga yordam beradi.

¹ <https://renessans-edu.uz/files/upload/aa13c8463d0fca372803c0742130d947.pdf>

PEDAGOGIKA

Masalan, iqtisodiy siyosat yoki global iqtisodiy masalalarni o'rganishda talabalar mustaqil ravishda muammolarni tahlil qilishlari, turli manbalardan ma'lumotlar to'plashlari va o'z xulosalarini shakllantirishlari kerak. Bu yondashuv talabaga nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, mas'uliyatli qaror qabul qilish va kreativ yondashuvlarni ham o'rgatadi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini, analitik qobiliyatlarini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar talabalarni passiv o'rganuvchilardan faol ishtiropchilarga aylantiradi. Talabalar darsda faqat o'rgatish jarayoniga qatnashmay, balki iqtisodiy muammolarni tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish jarayonida faol ishtirop etadilar.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni va interaktiv metodlarni qo'llash orqali talabalar nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki hayotdagi muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini ham o'zlashtiradilar. Bunday yondashuvlar, shuningdek, iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonini qiziqarli, innovatsion va samarali qilish imkonini beradi.

XULOSA

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlar, talabalarning bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurroq shakllantirishga yordam beradi. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv o'qitish metodlari, proyekt asosida o'qitish, digital texnologiyalar va konstruktivizm yondashuvlari o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. O'qituvchilar zamonaviy pedagogik usullarni o'z faoliyatiga keng joriy etgan holda, talabalarni iqtisodiy fanlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashda katta rol o'ynaydilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-sod // "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022.
4. Shermuhammadov B.Sh., Qurbanova B.Q., Maqsudov U.Q., Qo'chqarova M.A., Sidikova Z.M. Umumiy pedagogika. /Farg'ona: "Classic" nashriyoti-2022. –240 b.
5. R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyot. –T.: «fan va texnologiya», 2018